

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-dekabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 038 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 966 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 29 569,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 110,8% ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 170,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovara ylanmasi 28 398,8 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 973,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati(%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 517 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichikkorxona va mikrofirmalar soni 2 533 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 11 841,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 11 030,8 mlrd so'mni tashki lqilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,6 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,2% ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzugadoirhavola:[Ulgurjisavdohajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Uzun (5,2 m.) ,Sherobod (3,4 m.) va Jarqo'rg'on (3,3 m.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 565 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 10 315,3 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mosdavriga nisbatan 9,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliyhisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDHqo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chopetishgamasul: Tashqiiqitissodiyfaoliyatvasavdostatistikasibo'limi	Bo'limboshlig'i: A.Dusnazarov Tel: +998554518000 (7540)	Ijrochi: I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta:info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termizsh. at-Termiziy ko'chasi,7- uy,
---	---	--	---